

**ONA TILI DARSLARIDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA
OID TAVSIYALAR**

Jahongirova Sevinch Jo'rabek qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti
talabasi*

E-mail: sevinchjahongirova73@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish uchun metodik tavsiyalar hamda foydali bo'lgan usul va topshiriqlar keltirilgan. Og'zaki nutqda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan jihatlar va turli xil nutqiy vaziyatlar orqali o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini oshirish yuzasidan o'tkazilgan tajriba natijasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, nutq turlari, faol nutq, javob nutq, taxminiy nutq, usul va o'yinlar.

Kirish. Dunyo miqyosida jadal rivojlanib borayotgan ta'lim sohasidagi kashfiyotlar va ilmiy yangiliklar talaygina. Jumladan, ona tili sohasini ham o'quvchilarga jahon ta'lim standartlari asosida o'rgatish har bir pedagogning asosiy maqsadidir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limi Davlat ta'lim standartlari va dasturida ona tili fani bo'yicha belgilangan kompetensiyalarida tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish kabi malaka talablari belgilangan. O'quvchining lisoniy malakasini baholashda eng asosiy bo'g'inlardan biri bu axborotni tinglovchilarga aniq, tushunarli va izchillik bilan yetkazib berish, ya'ni so'zlash kompetensiyasidir va bu yuzasidan ko'pgina izlanish ishlari olib borilmoqda. Shular jumlasiga Q. Abdurasulov, M. Qurbonova, U. Mamurxo'jayeva, I. Xushvaqtova, D. Muhammedova, D. Normuminova tadqiqotlarini kiritish mumkin.

Og'zaki nutq ko'nikmasi nafaqat ona tili darslarida balki ijtimoiy hayot faoliyatida ham zarur bo'lgan ko'nikmalardan biridir. Tinglash orqali ma'lumotni qabul qilib u haqida tushuncha hosil qilishsa, gapirish orqali esa shu eshitgan ma'lumotni qayta hikoya qilish zarurdir. Bundan tashqari og'zaki nutq jamiyatda, hayotiy faoliyatlarda ham o'z fikrini to'laqonli yetkazib berishda muhim sanaladi. Og'zaki nutq ko'nikmasi qanchalik mukammal va ravon bo'lsa, bu boshqa ko'nikmalar uchun ham asos vazifasini bajaradi. Ya'ni o'quvchilarning fikrlash doirasi keng va tiniq bo'lsa o'qib tushunish hamda yozish ko'nikmalarida o'z aksini ko'rsatadi. Bu esa gapirish ko'nikmasining rivojlanishi hisobida amalga oshadi. Lekin og'zaki nutq murakkab, ko'p qirrali jarayondir, negaki o'qib tushunish va tinglab tushunishda o'quvchi uchun tayyor til materialini berilsa, unda o'zi so'z boyligini ishga solgan holda nutq yaratishlari talab etiladi. Bunda o'quvchilar asosan talaffuzi, so'z boyligi va grammatik bilimlarini ishga soladi. Bilamizki, gapirish tug'ma qobiliyat va tabiiy ravishda yuzaga keladi, lekin uni rivojlantirish, fikrlarni o'stirish hayot faoliyati davomida yuzaga keladi va bu bir necha usul va metodlar orqali amalga oshiriladi.

Og'zaki nutq ham o'z navbatida uch turga bo'linadi: bular faol nutq, javob nutqi va taxminiy nutqdir. Faol nutqda so'zlovchi uchun hech qanday turtki bo'lmaydi, shunchaki uning o'z tashabbusidan kelib chiqib mustaqil tarzda yaratadi. Masalan:

1. Televideniye, radio va ko'cha-ko'yda ona tilimizga nisbatan qanday holatlar sizni tashvishlantiradi? Nima uchun?
2. Bugungi kundagi ona tilimiz bilan bog'liq qaysi ijobiy va salbiy jihatlar haqida kelajak avlodga xabar yetkazishni istar edingiz?¹

6-sinf ona tili darsligidagi ushbu savol aynan faol nutq uchun namuna bo'la oladi. Reaktiv ya'ni javob nutqida suhbatdoshning nutqiga yoki savoliga javob tarzida yuzaga keladi. Bu nutq dialog hamda muhokamalarda vujudga keladi. Masalan:


A: Men kecha hayvonot bog'ida sherni ko'rdim. Sen-chi, ko'rganmisan?

¹ Iroda Azimova va boshqalar. 6-sinf ona tili darsligi. Toshkent-2022. 11-bet

B: Ha, men o'tgan yil Afrikaga borganimda sherlar to'ldasini ko'rgandim, kabi. Keyingisi reproduktiv ya'ni taxminiy nutqda esa yodda qolgan matnni aytib berishdan iborat bo'ladi. Nutqning ushbu turida o'quvchilar diqqatli bo'lishlari va xotiralarini faollashtirishi kerak. Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun oldindan eshitgan hikoya yoki ertakni qisqacha bayon qilishlarini talab etiladi. Bundan tashqari shu kabi hikoyalar o'qib berilib, o'quvchilar o'zlari qayta yakun topishlari yoki hikoyaning oxirini o'qimay o'zlariga yakunlash vazifasini berish ham nutq ko'nikmasining o'sishiga hissa qo'shadi.

O'quvchilar gapirish jarayonida bir necha talablarga amal qilishlari lozimdir. Bunda birinchi navbatda bolaning o'z fikrini lisoniy vositalar yordamida to'g'ri ifodalash, mavjud lug'at boyligidan oqilona foydalanish, bir mavzudan chiqmay gapirishi, nutqni to'g'ri strukturalash, ya'ni mavzuga kirish, asosiy fikrni aytish, xulosalash, aytadigan gapi tinglovchiga qanday ta'sir qilishini oldindan baholay olish, tinglovchining diqqatini ushlab turish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.²

O'quvchilarda og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirishning talaygina usullari bo'lib, bular rasmlar asosida hikoya tuzish, biror mavzu yuzasidan o'rtogingiz bilan bahslashing, yoki biror vaziyat yuzasidan fikrlovchi savollar berish orqali amalga oshirish mumkin. Lekin bu usullar an'anaviy bo'lib, bugungi kunda o'quvchilarni zeriktirish ehtimoli yuqori. Turli yangi va qiziqarli usullar o'quvchilar e'tiborini tortadi. Masalan, biror mahsulotni reklama qilish:



Ushbu usul ham

o'quvchilarda lug'at boyligi, muloqot madaniyati va bir qancha lisoniy ko'nikmalarni shakllantiradi. O'quvchilarni turli vaziyatlarga qo'yish yoki

² Iroda Azimova, Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Toshkent-2020, 55-bet

intervyu berish usullari ham samaralidir. Berish uchun vaziyatlar:

1) Sim kartangizga pul o'tkazgansiz, lekin ishlamadi kompaniya bilan bog'lanib yechim oling.

2) Online xarid qilish uchun buyurtma bering.

3) Uchrashuv uchun restorandan joy band qilish kabilar. Bundan tashqari dars jarayonida yana bir nechta metodlarni qo'llash mumkin:

1. Rolli o'yinlar. O'quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlardagi rollarga kirishadi. Bular, shifokor va bemor, mijoz va sotuvchi, o'qituvchi va o'quvchi, mehmon va uy egasi. Bu usul orqali o'quvchilarda muloqot ko'nikmasi shakllanadi. Nutq holatlariga mos til birliklarini qo'llashni o'rganadi. Erkin va ishonch bilan gapirishga yordam beradi. Namuna: "Siz do'stingiz bilan kutubxonaga boringiz. U qanday kitob tanlashi kerakligini bilmaydi. Uni kitob tanlashga undang".

2. Klaster usuli. Bunda o'quvchiga bir asosiy so'z (masalan: "bahor", "ona", "kitob") beriladi. U shu so'z atrofida so'zlar yoki iboralarni klaster shaklida yozadi, so'ng u asosida og'zaki matn tuzadi. Bu usul fikrni tartibga solish, tasavvur va assotsiatsiyani kuchaytiradi. Matn tuzishga tayyorlov bosqichi hisoblanadi. Namuna: Asosiy so'z: "Kitob". Klasterga bog'lanadigan so'zlar: bilim, o'qish, do'st, qiziqish va boshqalar. Matn: "Kitob – mening eng yaqin do'stim. U meni yangi bilimlar bilan tanishtiradi..."

3. Tasviriy topshiriq (Kuzatish va ta'riflash). Bunda o'quvchi rasm, surat, hodisa yoki voqeani ko'radi va uni og'zaki tasvirlaydi. Bu usul orqali o'quvchilar nutq jarayonida kichik detallarga ham e'tibor beradi va so'z boyligini oshiradi. Gap tuzish va bayon qilish qobiliyati rivojlanadi. O'quvchiga bir manzara rasmi beriladi (masalan, tog'li qishloq) va "Bu joy haqida tasvirlab bering. Bu yerda yashasangiz, hayotingiz qanday bo'lardi?" deb so'raladi.

4. Pantomima (jimsiz ifoda). Tavsifi: O'quvchi jismoniy harakatlar (mimikalar, imo-ishoralar) bilan biror holatni ko'rsatadi. Boshqa o'quvchilar uni og'zaki ifodalaydi yoki tahmin qilishadi. Foydali taraflari: o'quvchilarda tasvirlash qobiliyatini kuchaytiradi va so'zsiz holatni so'z bilan ifodalashni o'rganadi. Guruh

ishlari va diqqatni kuchaytiradi. Namuna: Bir o'quvchi "non pishirayotgan oshpaz" rolini jimsiz bajaradi. Boshqasi esa: "Hozir siz bizga oshxonani tasvirladingiz. Siz xamir qorib, tandirga non yopdingiz..." kabi ta'rif beradi.

6. Matnga asoslangan og'zaki bayon. Tavsifi: O'quvchiga qisqa matn (hikoya, maqola) beriladi. U uni o'qib, og'zaki qayta hikoya qiladi yoki undagi asosiy fikrni gapirib beradi. Bu usul orqali o'quvchilarda eshitish va o'qish asosida nutq tuzish fikrni umumlashtirish va asosiy mazmunni ajratish qisqa, lo'nda, aniq bayon qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Namuna: Hikoya o'qiladi: "Qiz bola daraxt tagidan qush bolalarini topdi...". Savol: "Hikoyaning asosiy g'oyasi nima? Qiz qanday qaror qabul qildi?"

7. Munozara usuli. Bunda sinf ikki guruhga bo'linadi va qarama-qarshi fikr bildiradi. Har bir guruh o'z fikrini og'zaki himoya qiladi. Bu usul o'quvchilarga tanqidiy fikrlash va uni asoslash va dalillash ko'nikmasini shakllantiradi. Erkin va faol nutq muhitini yaratadi. Namuna: "Darslikdagi barcha ma'lumot internetda bor – unda nega darslik kerak?"

Bugungi kundagi zamonaviy darsliklarda ham o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish yuzasidan qiziqarli topshiriqlar o'rin olgan. Buning isboti o'laroq 10-sinf ona tili darsligiga yuzlanamiz.

NUTQ SO'ZLASH SAVODXONLIGI

1-bilet
Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.
Quyidagi diagrammada ifodalangan ma'lumotni og'zaki bayon qilib bering.



2-bilet
Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.
Quyidagi diagrammada ifodalangan ma'lumotni og'zaki bayon qilib bering.



2-bilet
Tayyorlanish uchun 30 soniya beriladi.
Quyidagi diagrammada ifodalangan ma'lumotni og'zaki bayon qilib bering.



Men ushbu topshiriqda o'quvchilarning barchasini darsga jalb qilish maqsadida guruhlarda ishlash texnologiyasidan foydalandim, o'quvchilarni

3 guruhga bo'lib har bir guruhda 8 tadan o'quvchi qatnashdi. Guruhdagi har bir o'quvchi diagrammani tasvirlab, ochib beradigan bittadan fikr aytish vazifasi berildi. Javoblar quyidagi baholash mezonini asosida tekshirildi.

Mezon	Tavsif	Ball
1. Mavzuga moslik va mazmun boyligi	Nutq mavzuga to'liq mos, asosli dalillar bilan boyitilgan, dolzarb fikrlar ilgari surilgan	5 ball
2. Mantiqiy izchillik	Fikrlar orasidagi bog'liqlik, kirish, asosiy qism va xulosa bosqichlarining ravon tuzilgani	4 ball
3. Talaffuz va imlo	So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, tinish belgilariga mos pauzalar, ohang	4 ball
4. Til boyligi va uslubga rioya	Boy leksikadan foydalanish, iboralar, maqollar yoki tasvir vositalaridan o'rinli foydalanish	4 ball
5. Sinfga murojaat va ta'sir kuchi	Ishtirokchilar e'tiborini jalb etish, hissiyot bilan gapirish, ishonchli va ta'sirchan nutq	3 ball

Yakuniy natija

Ball oraliqlari	Baho	O'quvchilar soni
18-20 ball	A'lo (5)	10
15-17 ball	Yaxshi (4)	5
12-14 ball	Qoniqarli (3)	6
0-11 ball	Qoniqarsiz (2)	3

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, og'zaki nutq ko'nikmasi – o'quvchilarning muloqot madaniyati, fikrni aniq va erkin ifoda eta olish qobiliyatini shakllantiruvchi muhim til kompetensiyasidir. Mazkur maqolada keltirilgan

metodik tavsiyalar ta'lim jarayonida og'zaki nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, mavzuga asoslangan munozaralar, fikr almashuv mashqlari, rolli o'yinlar, bahsli savollarga javob berish va auditoriyaga murojaat qilish kabi faol usullar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Tajriba va baholashlar shuni ko'rsatadiki, metodik yondashuvlar to'g'ri tanlanganda, o'quvchilar nutqiy ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov A va boshqalar, Ona tili o'qitish metodikasi. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent-2012.
2. Normuminova D. Ona tili darslarida og'zaki nutq malakasini rivojlantirish.
3. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Respublika ta'lim vazirligi. Toshkent-2022.
4. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Respublika ta'lim vazirligi. Toshkent-2022.
5. Iroda Azimova, Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Toshkent-2020.